

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN METOD VA VOSITALAR

Maxmudova Nigora Hikmatovna

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda texnologiya fanining maqsad va vazifalari, o'quvchilar hayotida tutgan o'rnini va texnologiya darslari jarayonida o'quvchilar qiziqishini oshirishning turli yo'llari haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'z: boshlang'ich sinf, texnologiya, qiziqish, samaradorlik, AKT.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun texnologiya darslari qiziqarli fanlardan biri hisoblanadi. Ko'pgina fanlar qatorida yosh avlodning har tomonlama yetuk bo'lishi ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishda texnologiya fani o'zining muhim o'rniga ega. O'quvchi voyaga yetib, qaysi kasbni egallamasin, kim bo'lmasin, "Texnologiya" fanidan olgan bilim va ko'nikmalari hayotda, albatta, naf keltiradi. Bugungi kunda yoshlarga kasb tanlashlarida, barkamol shaxs bo'lib yetishishlarida, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishlarida texnologiya fani asosiy ko'makchi va muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Texnologiya darslari o'quvchilarga quvonch bag'ishlaydi. Chunki ular bu darsda o'z mehnatlarining rohatini ko'radi, bajargan ishlaridan zavqlanadi, bu esa o'z navbatida o'quvchilarda bir qancha ijobiy hislatlarni shakllanishiga yordam beradi. Texnologiya darslarida o'quvchilarning bilim doirasi kengayadi, mehnatga bo'lgan hurmati oshib boradi, kasbga bo'lgan qiziqish uyg'onadi. Bu jarayonlar sodir bo'lishi uchun esa o'qituvchi darsni samarali tashkil qilishi va har bir darsga puxta tayyorgarlik ko'rishi kerak bo'ladi. Texnologiya darslarida samaradorlikka

erishishning hamda o'quvchilarning qiziqishini oshirishning yo'llari ko'p. Quyida ularning ayrimlari bilan tanishib chiqamiz.

Texnologiya darslarida uyishtiriladigan sayohatlar - dars mavzusidan kelib chiqqan holda maktab rahbarining ruxsati bilan sayohatlarni rejalashtirishni dars jarayonlarida yoki darsdan bo'sh vaqtlarda ham tashkil qilsa bo'ladi. O'quvchilar bilan birgalikda milliy hunarmandchilik uylari, muzeylarga, ko'p yillik tajribaga ega hunarmandlar va duradgorlar oldiga borish ularning qo'l mehnatlarini tomosha qilish, tayyorlanish texnologiyasi bilan tanishish ularga o'zgacha zavq bag'ishlaydi. Texnologiya darslarida uyushtiriladigan sayohatlar davomida o'quvchilar duradgorlik, chilangarlik, tikuvchilik hamda pazandachilik sohalarga oid ko'plab kasb-hunarlar bilan tanishadilar. Bu esa o'quvchilarni kelajak hayotlarida shu kabi kasb-hunarlardan birini egallab, sohaning mohir mutaxassisi bo'lib yetishishlariga qiziqishlarini oshishiga ham sabab bo'ladi.

Texnologiya darslarida "master-klass"larni tashkil qilish-dars jarayoniga ko'p yillik tajribaga ega, hunarmandlar, duradgor, tikuvchi va boshqa kasb egalarini taklif qilish. Ularning hayotiy tajribasi bilan o'rtoqlashish. O'quvchilarning qiziqqan savollariga javob olishi va ular bilan birgalikda ma'lum bir mehnat faoliyatini birgalikda bajarishi ular uchun unutilmas jarayon va tajriba bo'ladi. Natijada o'quvchilar texnologiya darslarida ulardan o'rgangan ish tajribalarini yodga oladi va amaliy darslarda o'zlarini sinab ko'rishadi.

Texnologiya dars jarayonida AKTdan foydalanish- hozirda hech bir sohani AKTsiz tasavvur qilishni imkoni yo'q. Texnologiya darslari amaliy mehnat jarayonlariga asoslangan bo'lsada, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish dars jarayonining muvaffaqiyatli o'tishiga yordam beradi. Maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilari rangli qog'ozdan har xil gullar, maketlar, tabriknomalar, turli ko'rinishdagi o'yinchoqlar, parranda va jonivorlar shaklini yasash, gazlamalardan ajoyib buyumlar tayyorlashni o'rganib boradilar. Dars jarayonida faqatgina bitta usuldan foydalanib mehnat jarayonlarini tashkil qilish o'quvchilar uchun ozroq zerikarli bo'lib qolishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi yangi dars yuzasidan izlanishi, yangi materiallarni yig'ishi kerak bo'ladi. Hozirda inson mehnati tufayli

ko'plab go'zalliklar yaratilmoqda. Bunday qo'l ishlarini topish va ularni o'quvchilar bilan birgalikda bahramand bo'lishi uchun ko'pgina internet saytlari mavjud. Oddiygina qog'ozdan gul yasash jarayonini mingdan ortiq turi mavjud. Shunga o'xshash eng yaxshi namunalarni izlab topish va ularni o'quvchilarga ko'rsatish natijasida darsda yanada ko'proq o'quvchilarni qiziqishlarini oshishiga erishish mumkin. Bu jarayon o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlanishiga ya'ni faqat ko'rgan narsasini yasashni emas, balki o'zlari mustaqil ravishda ijod qilishiga turtki bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarni mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash - bu unda mehnatga nisbatan uning yoshiga muvofiq keluvchi ongli va ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko'nikmalarni egallashga qiziqishni shakllantirish demakdir. O'quvchilarning to'g'ri yo'naltirilgan mehnat jarayonlari diqqatni bir yerga to'plashni, serharakatlikni, qiyinchiliklar bo'lishiga qaramasdan, boshlagan ishini oxirigacha yetkaza olish odatlarini tarbiyalashga, o'quvchilarning ijodiy tashabbusini o'stirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudova Nigora Hikmatovna. (2023). Tarbiyaning Maqsad Va Vazifalari. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 386-388
2. Tursunova, Z. (2023). USING INNOVATIVE AND INTERACTIVE METHODS IN NATIVE LANGUAGE AND READING LITERACY CLASSES. Modern Science and Research, 2(10), 777-779.
3. Ne'matovna, T. Z. (2023). Boshlang'ich Sinflarda Ot So'z Turkumini Izchillikda O'rgatish Metodikasi. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 389-391.
4. Ne'matovna, T. Z. (2023). BOSHLANG'ICH SIFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI.
5. Tursunova, Z. (2023). METHODOLOGY OF MOTHER TONGUE TEACHING IN PRIMARY SCHOOLS. Modern Science and Research, 2(9), 350-352.
6. Bahodirovna, H. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING METODOLOGIK VA ILMIY ASOSLARI.
7. Hojiyeva, N. (2023). METHODS OF TEACHING MOTHER TONGUE IN PRIMARY CLASSES SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASIS. Modern Science and Research, 2(9), 424-428.

VOLUME-1, ISSUE-5

8. Hojiyeva, N. (2023). THE SUBJECT AND TASKS OF THE METHOD OF TEACHING THE MOTHER TONGUE IN PRIMARY GRADES. *Modern Science and Research*, 2(10), 855-857.
9. Bahodirovna, H. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI.
10. Bahodirovna, H. N. (2023). TA'LIM JARAYONIDA BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O 'QITISH MUAMMOSINING YORITILISH MAZMUNI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 209-209.
11. Bahodirovna, H. N. (2023). Methodological Foundations of Teaching the Science of " Education" in Primary Grades. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 369-372.
12. Лукмонова, С. (2022). БО 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O 'QITUVCHISINING RAQAMLI TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISHGA TAYYORLIGINI SHAKLLANTIRISH: Lukmonova Salomat Gafurovna, Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasida o'qituvchisi, Buxoro davlat universiteti orcid 0000-0001-9040-0232. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (1), 221-226.
13. Kozimova, N. (2023). USE OF HADITHS AS THERAPY IN STUDYING THE PROBLEMS OF RAISING CHILDREN OF PARENTS APPLYING FOR PSYCHOLOGICAL CONSULTATION. *Modern Science and Research*, 2(9), 61-63.
14. Kozimova, N. A. (2023). BUGUNGI TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHI-YOSHLARNI ZAMONAVIY KASBLARGA YO'NALTIRISH VA KASB-HUNAR TANLASHNING IJTIMOY VA PSIXOLOGIK JIHATLARI. *PEDAGOG*, 6(5), 739-741.
15. Kozimova, N. A., & Ulug'ova, S. M. (2023). ZAMONAVIY PSIXOLOGIK KONSULTATSIYA, UNING TURLARI VA UNGA MUROJAAT QILISH SABABLARI. *Scientific Impulse*, 1(6), 1679-1682.
16. Nigora Kozimova Abduqahorovna. (2023). Modern psychological consultation, its types and reasons for applying to it. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 129-131. Retrieved from <http://grnjournal.us/index.php/AJPDIS/article/view/1343>
17. Akbarovna, I. S. (2023). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF BEHAVIOR FORMATION IN ADOLESCENTS. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 184-191.
18. Akbarovna, I. S. (2023). NEGATIVE AND POSITIVE CHANGES IN ADOLESCENT BEHAVIOR. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 192-197.

VOLUME-1, ISSUE-5

19. Ikromova, S. A. (2023). FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF IMMUNITY TO DESTRUCTIVE IDEAS IN ADOLESCENTS. *Innovation in Science, Education and Technology*.

20. Jalolov, T. S. (2023). PSIXOLOGIYA YO 'NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARGA SPSS YORDAMIDA MATEMATIK USULLARNI O 'RGATISHNING METODIK USULLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(10), 323-326.

21. Jalolov, T. S. (2023). PYTHON INSTRUMENTLARI BILAN KATTA MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(10), 320-322.

22. Jalolov, T. S., & Usmonov, A. U. (2021). "AQLLI ISSIQXONA" BOSHQARISH TIZIMINI MODELLASHTIRISH VA TADQIQ QILISH. *Экономика и социум*, (9 (88)), 74-77.

23. Sadriddinovich, J. T. (2023). Capabilities of SPSS Software in High Volume Data Processing Testing. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 82-86.

24. Sadriddinovich, J. T. (2023, November). IDENTIFYING THE POSITIVE EFFECTS OF PSYCHOLOGICAL AND SOCIAL WORK FACTORS BETWEEN INDIVIDUALS AND DEPARTMENTS THROUGH SPSS SOFTWARE. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 18, pp. 150-153).

25. Jalolov, T. S. (2023). TEACHING THE BASICS OF PYTHON PROGRAMMING. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(11).

26. Jalolov, T. S. (2023). Solving Complex Problems in Python. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(9), 481-484.

27. Jalolov, T. S. (2023). PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF DATA PROCESSING USING THE SPSS PROGRAM. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 2(23), 220-223.

28. Jalolov, T. S. (2023). ADVANTAGES OF DJANGO FEMWORKER. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(12).

29. Jalolov, T. S. (2023). ARTIFICIAL INTELLIGENCE PYTHON (PYTORCH). *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 1(3), 123-126.

VOLUME-1, ISSUE-5

30. Jalolov, T. S. (2023). SPSS YOKI IJTIMOIIY FANLAR UCHUN STATISTIK PAKET BILAN PSIXOLOGIK MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH. Journal of Universal Science Research, 1(12), 207–215.

31. Jalolov, T. S. (2023). THE MECHANISMS OF USING MATHEMATICAL STATISTICAL ANALYSIS METHODS IN PSYCHOLOGY. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 138-144.

32. Jalolov, T. S. (2023). PROGRAMMING LANGUAGES, THEIR TYPES AND BASICS. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 145-152.

33. Jalolov, T. S. (2023). PYTHON TILINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 153-159.

34. Jalolov, T. S. (2023). PYTHON DASTUR TILIDADA WEB-ILOVALAR ISHLAB CHIQISH. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 160-166.

35. Jalolov, T. S. (2023). SUN'IY INTELLEKTDADA PYTHONNING (PYTORCH) KUTUBXONASIDAN FOYDALANISH. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 167-171.

36. Jalolov, T. S. (2023). WORKING WITH MATHEMATICAL FUNCTIONS IN PYTHON. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 172-177.

37. Jalolov, T. S. (2023). PARALLEL PROGRAMMING IN PYTHON. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 178-183.

38. Tursunbek Sadriddinovich Jalolov. (2023). STUDY THE PSYCHOLOGY OF PROGRAMMERS. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 563–568.